

O'QITISH VA O'QISH STRATEGIYASI TUSHUNCHALARI VA ULARNING MAZMUN-MOHİYATI (INGLIZ TILI MISOLIDA)

Zaripova Aziza Shaxobiddinovna

Samarqand Davlat Chet tillari instituti tayanch doktoranti

Anotatsiya. Mazkur maqolada o'qitish va o'qish strategiyasi tushunchalari va ularning mazmun-mohiyati yoritilgan. Xorijiy tillarni ta'lim strategiyalari orqali o'rganish o'qitishni samarali bo'lishiga yordam beradi ushbu maqolada shu kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: o'qitish strategiyalari, kompetentlik, kompetensiya, geografiya sohasiga oid terminlar, terminlar tipologiyasi, o'qitish strategiyalari tasnifi.

КОНЦЕПЦИИ ПРЕПОДАВАНИЯ И СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ И ИХ СОДЕРЖАНИЕ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА)

Зарипова Азиза Шахобиддиновна

докторантка Самаркандского государственного института иностранных языков.

Аннотация. В этой статье описываются концепции преподавания и стратегии обучения и их содержание. Изучение иностранных языков посредством образовательных стратегий помогает сделать обучение эффективным.

Ключевые слова: стратегии обучения, компетентность, компетентность, термины, относящиеся к географии, типология терминов, классификация стратегий обучения.

CONCEPTS OF TEACHING AND LEARNING STRATEGIES AND THEIR CONTENTS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE)

Aziza Shakhobiddinovna Zaripova

is a doctoral student at the Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract. This article describes the concepts of teaching and learning strategies and their content. Learning foreign languages through educational strategies helps to make teaching effective. This article discusses such issues.

Key words: teaching strategies, competence, competence, terms related to geography, typology of terms, classification of teaching strategies.

KIRISH. Bugungi globallashuv jarayonlari zamonaviy mutaxassisdan chet tillarini bilish hamda butun mehnat faoliyati davomida o'qitishni talab qiladi. Ta'lim amaliyotida kompetensiya, strategiya kabi tushunchalardan foydalanib kelishi ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglashni talab qiladi. Zamonaviy universitetlarda chet tilini o'qitishning uslubiy asosi darslarni kompetensiyaga asoslangan yondashuvda o'tkazish hisoblanadi. Chet tilini ta'lim strategiyalari yordamida o'rganish nafaqat ushbu mavzuning rivojlanishiga, balki talabalarning o'quv strategiyalarini ishlab chiqish, tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi fikrlash jarayonlari asosida yangi bilimlarini takomillashtirishga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mamlakatimizda xorijiy tilni o'qitish masalalari G.X.Bakieva, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, T.K.Sattarov, M.Djusupov, D.Djumanova, D.U.Xoshimovalar, ingliz tilini o'qitish metodikasi bo'yicha F.M.Rashidova, F.Sh.Alimov, M.Gulyamova, F.Ikromxonova, B.G.Kulmatov, I.M.Tuxtasinov, M.A.Nazarova, T.Madraximov X.Mamatqulov, K.Riskulovalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Samarali o'quv jarayonlarini tashkil qilish har doim dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblangan. Xususan, samarali o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning bir qancha nazariyalari va amaliyoti masalalari, ularni qo'llashning metodik va didaktik asoslari, shuningdek, yangicha onlayn ta'lim jarayonini yurtimizda qo'llash masalalari yurtimiz tadqiqotchi olimlari A.Abduqodirov, N.Muslimov, U.Begimkulov, A.Hayitov, M.Lutfillaev, N.Taylaqov, MDH olimlari Ye.Polat, A.Andreev, N.Naydenova, G.Levkin, I.Varganova, N.Valyushina, R.Pimonov, N.Gavrilov, I.Zadorojnyaya, S.Berejnaya, M.A.Malsheva, S.Bogdanova va Xorij olimlari A.Amadco, I.Allen, J.Seaman, D.Keegan, H.Kappel, B.Lehmann, J.Loeper, B.Holmberg, M.Douglas, P.Taylorlar tomonidan o'rganib chiqilgan.

Xorijiy olimlar tomonidan XX asrning 70-yillari oxiridan boshlab uslubiy adabiyotlarda «ta'lim oluvchi

malakasi» atamasini S.Ehlers, J.Grzesik, G.Westhoff, X.Willenberglar yorita boshladi va o'qishga o'rgatish masalalarini ko'rib chiqishda «ta'lim oluvchi kompetensiyasi» atamasi qo'llanildi.

G.S.Kovaleva, N.V.Nurminskayalar chet tilidagi manbalarni rus tiliga tarjima qilishda «ta'lim oluvchi kompetensiyasi» atamasi [8; 28-b.], «o'qish savodxonligi» «tahlil qobiliyatlari» kabilarni qo'llash haqida I.V.Blauberg ham o'z fikrlarini bergan [4; 48-b.]. Mazkur holatlar ko'p jihatdan ingliz tilidagi “competence” va “competency” so'zlari aksariyati sinonimlar sifatida ta'riflanib, “kompetentlik” deb tarjima qilinganligi bilan bog'liq. Nazariy manbalarda S.I.Ozhegov, N.Yu.Shvedova fikriga ko'ra, “kompetentlik” atamasi “har qanday organ yoki mansabdor shaxsning texnik topshirig'i”, “kimdir yaxshi biladigan masalalar doirasi” sifatida ta'riflanadi va asosan huquqiy-ma'muriy munosabatlar sohasida qo'llaniladi. D.Ravenning fikricha, kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlariga shaxsiy qadriyatlar tizimi yoki «kompetentlik turlari» bilan bog'liq bo'lgan ichki motivlangan xususiyatlar kiradi. Ya'ni, shaxsning tashabbuskorlik, yetakchilik, tashkilot va umuman jamiyat mexanizmlariga bevosita qiziqish kabi fazilatlar, shuningdek, ularning unga mumkin bo'lgan ta'siri tushuniladi. Bu fazilatlarining barchasi bugungi kunda ko'pgina ta'lim dasturlari tomonidan taqdim etiladigan eskirgan umumiy, maxsus bo'lmagan bilimlardan farqi aniq, maxsus bilimlarning mavjudligiga bog'liq [13; 396-b.].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O'qish kompetensiyasi va o'qishni tushunish turli mazmuni anglatadi. Ingliz tili o'rganuvchilari uchun berilgan matnlar kontekstida o'qish strategiyalarining o'rnini tushunish uchun o'qish haqidagi ba'zi umumiy fikrlarni bilish zarur. Hover va Goughning o'qish to'g'risida ikkita qarama-qarshi fikrari mavjud bo'lib, nazariy jihatdan farqlarini ko'rib chiqamiz. Birinchisi, o'qishning ikkita alohida komponentlari: dekodlash va lingvistik tushunishning kombinatsiyasi bo'lgan oddiy o'qish ko'rinishi(SVR). Dekodlash fonologik xabardorlik va orfografik bilimlardan iborat. Lingvistik tushunish esa so'z darajasidagi ma'nolarga asoslangan jumlar, paragraflar va yoki butun matnlarning talqinlarini hosil qilishni anglatadi [8; 128-131-b.].

Dole ta'kidlashicha, bu ikkala qarashlar ham zarur, ammo o'qishni samarali bo'lishi uchun yetarli emas, matnni tushunish uchun faqat lug'at va sintaksisni bilish kerak. Shunday qilib, ushbu modelda ta'lim oluvchilar matndan ma'lumotni passiv qabul qiladilar, «ma'no matnning o'zida joylashgan va ta'lim oluvchining maqsadi bu ma'noni takrorlashdir» [4; 240-b.].

Agar ta'lim oluvchi matndagi so'zlarni tushuna olsa va matnning grammatikasini tahlil qila olsa, matnning ma'nosi aniq bo'ladi. Wallacening fikricha matnni ushbu ko'rinishda tushunishning bir usuli «matn va matn qismlariga e'tibor beriladi, shaklga yoki shakl va ma'no o'rtasidagi munosabatlarga esa turlicha e'tibor beriladi» [13; 21-b.]. Bu yerda lug'at va grammatikaning mustahkamligi muallif nimani aytmog'chi bo'lganini tushunish uchungina muhim ahamiyatga ega. Ushbu qarashga ko'pincha boshqa o'qish nazariyalari qarshi chiqadi, ya'ni lingvistik elementlar va ma'no o'rtasidagi soddalashtirilgan munosabatni rad etmasdan, balki ta'lim oluvchi ma'noning passiv qabul qiluvchisidir degan fikrdir. Ba'zi nazariyalar matndagii barcha ma'nolarni ko'rish o'rniga, o'qishni ma'lum matndagi lug'at va grammatikani bilish orqali ta'lim oluvchi matnning ma'nosi to'g'risida qaror qabul qiladigan jarayondir, deb ta'kidlaydi. Gudman aytganidek o'qish – bu psixolingvistik taxmin qilish o'yini, u fikr va til o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'z ichiga oladi. Samarali o'qish barcha elementlarni aniq idrok etish va aniqlash natijasida emas, balki o'qish qobiliyatidan kelib chiqadi.

O'qish jarayonida matnni o'qib bo'lgach, ilk marta keladigan to'g'ri taxminlar va eng samarali ishoralarni tanlash muhim [13; 127-b.] bu nuqtai nazardan, ikkita asosiy qarash mavjud. Birinchisi, matnning o'zi, so'zlar va sintaksis ta'lim oluvchi ma'noni anglatishi mumkin bo'lgan kontekstni yaratadi. Bu gap faqat ma'noning so'zlar va ularning grammatik tuzilmalari ichida bo'lishi masalasi emas, bu uning qismlari yig'indisidan ko'ra ko'proq butun borliq masalasidir. Ushbu yondashuv ma'noni faqat o'zi tuzilgan leksika va sintaksis bo'laklaridan kelib chiqmaydigan narsa deb qaraydi. Ma'noning ikkinchi manbai ta'lim oluvchidan «ta'lim oluvchida mavjud bo'lgan o'z tajribasi, tili va fikrlash rivojlanishining umumiy yig'indisini o'qish jarayoniga olib keladi» deydi Godman [10; 130-b.]. Bu nafaqat ta'lim oluvchi matnga olib keladigan tilni bilish, balki matn mavzusiga oid o'ziga xos asosiy bilim va umuman olganda, ular keltiradigan bilimdir va bu ko'pincha oldingi bilim yoki sxema deb ataladi.

O'qish strategiyalarini aniqlash. Ta'lim strategiyalari sohasi doirasida mutaxassislar orasida yagona qabul qilingan ta'rif mavjud emas deydi [6]. O'Malley va Chamot tomonidan berilgan dastlabki ta'rifda ta'kidlanishicha, o'rganish strategiyalari «odamlar ularga yangi ma'lumotni tushunish, o'rganish yoki saqlashga yordam berish uchun foydalanadigan maxsus fikrlar yoki xatti-harakatlardir» [7; 1-b.]. Ushbu ta'rif o'rganish strategiyalari tuyg'usini qamrab olsa-da, uni haqiqatan ham yetarli ta'rif deb hisoblash uchun juda noaniqdir. Oksford tomonidan taqdim etilgan ta'rif bu turli mutaxassislar tomonidan ilgari taqdim etilgan mavjud ta'riflarning sintezi, ya'ni chet tili o'rganuvchilari uchun ta'lim strategiyalari murakkab, dinamik fikrlar va harakatlar hisoblanadi. Ularni

amalga oshirish maqsadida o'zlarining ko'p jihatlarini (masalan, kognitiv, hissiy va ijtimoiy) tartibga solish uchun muayyan kontekstlarda ma'lum darajada ongga ega bo'lgan ta'lim oluvchilar tomonidan tanlanadi va foydalaniladi. Til vazifalari ham turlichadir, til unumdorligi undan foydalanishni yaxshilash va uzoq muddatli malakani oshirish strategiyalari aqliy jihatdan boshqariladi, lekin jismoniy bo'lgan ko'rinishlarga ham ega bo'lishi mumkin, o'rganuvchilar strategiyalardan moslashuvchanlikda va ijodiy foydalanadilar. Ularni turli yo'llar bilan birlashtirish, masalan, strategiya klasterlari yoki strategiya zanjirlari. Strategiyalarni tajribali o'qituvchilar o'quv jarayonlarida o'rgatishlari mumkin. Talabalar o'zlarining kontekstlarida qaysi strategiyalardan foydalanishni o'zlari hal qiladilar, strategiyalarning mosligi esa bir nechta shaxsiy va kontekstual omillarga bog'liq [7; 48-b.].

Mazkur ta'rif chalkashdek tuyuladi, ammo bu foydali bo'lgan til o'rganish strategiyalarining eng muhim xususiyatlarini qamrab oladi. Ta'lim strategiyalarining birinchi xususiyati ta'lim strategiyalari ta'lim oluvchi tomonidan faol va maqsadli qo'llanilishini ko'rsatadi. Shuni ham aytish joizki, strategiyalar va ko'nikmalar o'rtasida muhim farq bor. Oksford uchun ko'nikma «qobiliyat, mutaxassislik yoki malaka tilni rivojlantirish jarayonida bosqichma-bosqich erishiladi» degan ma'noni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, strategiya – tajriba orqali til o'rganuvchi tomonidan egallangan amaliyotdir va til o'rganuvchi tomonidan, hech bo'lmaganda ma'lum darajada ongli ravishda amalga oshiriladi, ya'ni til o'rganuvchi ulardan qachon foydalanayotganidan o'zi xabardordir. Ta'lim strategiyalarining ikkinchi xususiyati shundaki, ular qisqa muddatli yoki uzoq vaqt davomida biror vazifa yoki maqsadni amalga oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, Oksford ta'rif ta'lim oluvchi va kontekstning o'zgaruvchanligini tan oladi, ya'ni ular hamma uchun mos keladigan yechim sifatida ko'rilmaydi. Ta'lim strategiyalarining yana bir muhim xususiyati ularga bu kasbi strategiyalarni qanday va qachon ishlatishni ko'rsatish kerak, til o'rganuvchilari uchun ta'lim strategiyalarining maqsadi “o'quvchidan o'z ta'limini ongli ravishda nazorat qilishni talab qiladigan o'quvchilarning avtonomiyasini shakllantirishga yordam berishdir” deydi Hsiao [1; 369-b.].

Ushbu xususiyatlar o'qish strategiyalariga qo'llanilganda, biz ta'rifni quyidagicha qisqartirishimiz mumkin ya'ni o'qish strategiyalari – bu ma'lum bir o'qish vazifasi yoki maqsadiga erishish uchun ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar bo'lib, ular kontekst va ta'lim oluvchiga qarab turli usullarda qo'llanilishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, bu harakatlar o'qishdan oldin, o'qish jarayonida yoki o'qish topshirig'idan keyin amalga oshirilishi mumkin, chunki ushbu usullarni qachon qo'llash o'qishga tegishli strategiyalarni muhokama qilishda aniq bo'ladi.

O'qish strategiyalarining tasnifi. Tasniflash – bu sohadagi mutaxassislar o'rtasida yana bir tortishuv nuqtasi hisoblanadi. So'nggi bir necha o'n yilliklar davomida aniqlangan strategiyalar o'rtasida juda ko'p o'xshashliklar mavjud. Ko'pincha, eng katta og'ish – bu strategiyalar qanday tasniflanganligi, bu farqlar muhim, chunki ular individual strategiyalarining maqsadi va kognitiv jarayonini, xorijiy til o'rganish haqidagi nazariyalarni nazarda tutadi deydi Hsiao [1; 368-b.]. Hozirgi tadqiqot doirasida har bir strategiyani umumlashtirish mumkin emas. Keng tarqalgan va qo'llaniladigan, bir-biriga o'xshash ikkita tasnif Oksford tizimi O'Malley va Chamot tomonidan taqdim etilgan tasniflardir. O'Malley va Chamot asoslari o'z doirasidagi strategiya turlarini tasniflash uchun uchta toifadan foydalanadi: kognitiv strategiyalar, metakognitiv strategiyalar va ijtimoiy/affektiv strategiyalar.

Kognitiv strategiyalar “kelayotgan ma'lumotlarga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, uni o'rganishni kuchaytiruvchi yo'llar bilan boshqaradigan” strategiyalardir [7; 44-b.]. Ushbu toifadagi strategiyalarga misol sifatida ma'lumotlarni umumlashtirish va takrorlash (qayta o'qish) kiradi.

Metakognitiv strategiyalar. Ushbu strategiyalar ta'lim oluvchining o'zaro ta'siriga qaratilgan matn monitoringi va baholash kabi strategiyalarni o'z ichiga oladi. O'qish, monitoring va baholash kontekstida ko'pincha ta'lim oluvchining matnni tushunishiga ishora qiladi, masalan, tushunish qachon buzilganligi (monitoring) va ularning strategiyasidan foydalanish va o'qish samaradorligi muvaffaqiyatli bo'lganligi haqida xabardor bo'lishdir (baholash).

Yakuniy kategoriya ijtimoiy bo'lib, o'quv topshirig'iga, o'qituvchi boshqa talabalar bilan matnni muhokama qilish yoki o'quv faoliyati muvaffaqiyatli bo'lishiga o'zini ishonitirishga yoki o'zini-o'zi ta'lim olishiga ishonch hosil qilish uchun o'zining ruhiy holati haqida fikr yuritishda boshqalar bilan o'zaro munosabatlarga taalluqlidir [7; 46-b.].

Oksford tizimi (OXF) OMCFdan farqli ravishda ta'lim strategiyalarini toifalarga ajratadi, garchi strategiyalarning ta'riflarida ko'p o'xshashliklar mavjud. Birinchisi, OXF ijtimoiy strategiyalarni ikkita alohida toifaga ajratadi va shu bilan har biri uchun turli motivlar va jarayonlarni nazarda tutadi. Shuningdek, u yana ikkita toifani qo'shadi: xotira strategiyalari va kompensatsiya strategiyalari. Xotira strategiyalari ma'lumotni uzoq vaqt davomida aqliy saqlash uchun ta'lim oluvchiga assotsiatsiyalar yaratishda yordam beradigan strategiyalarni

nazarda tutadi [7; 38-39-b.]. Ushbu turkumdagi strategiyalar semantik xaritalash va elementlarni birgalikda guruhlashni o'z ichiga oladi. Kompetensiya strategiyalari ta'lim oluvchiga lug'at etishmasligi yoki grammatikani yetarli darajada tushunmaslik kabi bilimlardagi bo'shliqlarni bartaraf etishga yordam berish uchun ishlatiladi. O'qish vazifalarida noma'lum lug'atga duch kelgan ta'lim oluvchilar so'zlarni tushunishga yordam berish uchun kontekstli berilgan mashqli maslahatlardan foydalanishi yoki ta'riflarni topish uchun lug'atdan foydalanishi mumkin. OMCF ham, OXF ham strategiyalarning taqqoslanadigan toifalarini taqdim etsa-da, Mokhtari va Sheorey asoslari ularning tuzilmalaridan keskin ajralib chiqadi va turli taxminlar asosida quriladi. Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, ularning doirasi faqat o'qish strategiyalarini, xususan, akademik maqsadlarda o'qishni o'z ichiga oladi. Demak, Mokhtari va Sheorey asoslari (bundan buyon matnda SORS2 deb ishlatiladi) o'qishdan boshqa til ko'nikmalariga umumlashtirish uchun mo'ljallanmagan, holbuki OMCF va OXFdagi strategiya turlari, ko'pincha, o'z tavsifida yetarlicha umumiy bo'lib, ularni qo'llash mumkin.

O'qish strategiyalarining tasnifi faqat uchta toifani o'z ichiga oladi: global, muammolarni hal qilish va o'qishni qo'llab-quvvatlash strategiyalari. Global o'qish strategiyalari – bu «o'qish harakati uchun zamin yaratishga qaratilgan o'qish strategiyalari» [2; 252-b.]. Bularga OMCF va OXF metakognitiv toifalariga mos keladigan oldingi bilimlarni o'qish va faollashtirishda maqsadni yodda tutish kabi strategiyalarni kiritadi, shuningdek, OMCF va OXFning kognitiv toifasiga mos keladigan tushunishni oshirish uchun jadvallar va raqamlarni ko'rib chiqish, ulardan foydalanish kabi strategiyalarni ham o'z ichiga oladi. Keyingi toifa muammoni hal qilish bo'yicha o'qish strategiyalari bo'lib, ular matnli ma'lumotni tushunishda muammolar paydo bo'lganda foydalaniladigan mahalliyashtirilgan, yo'naltirilgan muammolarni hal qilish yoki tuzatish strategiyalaridir. Sekin va diqqat bilan o'qish, diqqatni jamlash, yo'qolganda o'z yo'lga qaytishga harakat qilish va matn qiyinlashganda diqqatni jamlash ushbu turkumga kiradi. Oxirgi toifa – bu o'qishni qo'llab-quvvatlash strategiyalari [2; 253-b.]. Ushbu turkumga lug'at kabi ma'lumotnoma materiallaridan foydalanish va tushunishni tekshirish uchun o'qilgan narsalarni boshqalar bilan muhokama qilish kiradi. Ushbu uchta asosdan ko'rinib turibdiki, o'rganish va o'qish strategiyalarining toifalari keskin farq qiladi. Har xil o'qish strategiyalarining har biri o'rtasida yuqorida aytib o'tilgan, ammo kengaytirishga arziydigan muhim umumiy xususiyatlar mavjud. Bularga ta'lim oluvchining avtonomiyasi va meta-idrok tushunchalari kiradi.

O'qish strategiyalari bo'yicha ba'zi dastlabki nashrlar Hosenfeld, Olshavskiy, Rubin tomonidan chet tili ta'lim oluvchilari foydalanadigan strategiyalarni aniqlashga intilishdi [5] va bu o'qish strategiyalari bo'yicha keyingi tadqiqotlarning ko'pchiligiga asos bo'ldi. Xosenfeld muvaffaqiyatli ta'lim oluvchilar o'qish paytida kontekstni yodda tutishlarini, kontekstdan foydalangan holda so'zlarning ma'nolarini taxmin qilishga harakat qilishlarini, bir so'z bilan emas, balki bo'laklarga tarjima qilishlarini va boshqa strategiyalar muvaffaqiyatsiz bo'lmasa, lug'atdan foydalanilmasligini anglatadi. Muvaffaqiyatsiz ta'lim oluvchilar dekodlashda so'zlarning ma'nosini yo'qotadilar, qisqaroq bo'laklarga yoki bitta so'zlarga tarjima qiladilar va har bir so'zga tenglashadilar. Rubin aniqlash, monitoring, yodlash, taxmin qilish, deduktiv fikrlash, amaliyot kabi toifalarni o'z ichiga olgan o'rganish strategiyalarining dastlabki taksonomiyalaridan birini taqdim etadi [9; 124-126-b.].

Xosenfeld va Olshavskiy tomonidan olib borilgan tadqiqotlardan so'ng, keyinchalik umumiy o'rganish strategiyalari va o'qish strategiyalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ikkinchi til o'rgauvchilari uchun bilim darajalarining turli darajalari o'rtasidagi strategiyalardan foydalanishdagi farqlarga qaratilgan. Block ovoz chiqarib o'ylash protokollaridan (TAP) foydalangan holda, tushunish bo'yicha topshiriqlarni yaxshiroq bajargan ta'lim oluvchilar «integrallashgan ma'lumotlar, matn tuzilishidan xabardor bo'lishlari hamda ularning tushunishlarini izchil va samarali nazorat qilishlari»ni aniqladi [3; 482-b.]. Shuningdek, ular so'zlar yoki parchalarning ma'nosini taxmin qilish uchun kontekstdan foydalanganlar. Tushunish bo'yicha topshiriqlarni yomon bajargan guruh esa o'qishni shaxsiy tajribalari orqali aks ettirishadi va umumlashtirish topshiriqlarida asosiy g'oyalarni emas, balki tafsilotlarni berishadi. Carrell tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ilg'or chet o'rganuvchilari global ma'noga qaratilgan ko'proq yuqoridan pastga strategiyalarni qo'llashgan, past darajadagi guruh esa o'qish qiyinchiliklarini yengish uchun pastdan yuqoriga strategiyalardan foydalangan [14].

O'Malley va Chamot umumiy ta'lim strategiyalarini ko'rib chiqdilar va EFL talabalari ko'proq o'rganish strategiyalarini qo'llashlarini aniqladilar, «vazifaga ko'proq maqsadli yondashadilar, ularning bajarilishini nazorat qiladilar degan fikrni beradilar [7; 140-141-b.].

S.K.Folomkinaning fikriga ko'ra, o'qish – o'rganish, kirish, ko'rish va qidirishga bo'linadi, O'qish turlari tasnifini ishlab chiqishda mualliflar, qoida tariqasida, ma'lum bir kompetensiyaning shakllanishi sodir bo'ladigan yoki unga bog'liq bo'lgan o'qish jarayonining shaklini hisobga oladi. Folomkina o'qish jarayonining shakliga asoslanadi: ovoz chiqarib o'qish va o'z-o'ziga o'qish. O'qishning bu turlari kommunikativ vazifalar nuqtai

nazaridan farqlanadi va o'quv jarayonining turli maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan. Ovoqli o'qishning kommunikativ vazifasi – bu ma'lumotni yetkazish, o'z-o'ziga o'qish, ma'lumot olish. Bu o'qish turlari turli tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradi. Birinchisi – o'rganish vositasi, ikkinchisi – o'rganish maqsadi. Ovoz chiqarib o'qish umuman chet tilini o'rgatish va xususan o'qish jarayoni uchun katta ahamiyatga ega, chunki u tilning tovush tizimini o'zlashtirishga imkon beradi, talaffuzni chiroyli qiladi, aksentni yo'qotadi. Ovoz chiqarib o'qishning turli xil kichik turlari mavjud: o'quv va oddiy, o'rganish va ko'rish, umumiy mazmunni qamrab olish, tafsilot. Ovoqli o'qishning kichik turlari bo'lishi mumkin:

1) matnning tushunish chalkashroq bo'lgan qiyinchiliklari bilan, to'liq bartaraf etilgan qiyinchiliklar bilan, qisman olib tashlangan qiyinchiliklar bilan o'qish;

2) tayyorlangan o'qish, qisman tayyorlangan va tayyorlanmagan;

3) tushuntirilgan, qisman tushuntirilgan va tushuntirilmagan.

Shu bilan birga, ovoz chiqarib o'qishning tashkiliy shakllari uning o'quv va nazorat, auditoriya, uy va laboratoriya, individual va guruh kabi turlarini ajratish imkonini beradi. Bu tasnifni o'qishning intensivligi yoki ko'lamliligi, tarjimaning borligi yoki tarjimaning yo'qligi, tayyorligi yoki tayyor emasligi va boshqalar kabi xususiyatlari bilan murakkablashishi mumkin. Z.I.Klychnikova o'qish doimiy, vaziyatni tanlab, sekin, ravon, lug'at bilan, lug'atsiz bo'lishi mumkin deydi. Chet tilini o'qitishning dastlabki bosqichida ovoz chiqarib o'qish texnikasini rivojlantirishning muhim vositasi bo'lsa, o'rganishning yanada rivojlangan bosqichlarida ovoz chiqarib o'qish asosan nazorat va ifodali o'qish vazifasini bajaradi. Ovoz chiqarib o'qish quyidagicha qo'llaniladi:

a) o'rganilayotgan tilning alifbo va tovush qoliplarini o'zlashtirish;

b) gapning idrok etilgan elementlarini sintagmalarga birlashtira olish qobiliyatini rivojlantirish;

v) o'qish tezligini tezlashtirish;

d) bashorat qilish qobiliyatini rivojlantirish;

e) o'rgatish va tushunishning to'g'riligini nazorat qilish.

«Ta'lim strategiyasi» tushunchasi zamonaviy sotsiologik nashrlarda faol qo'llaniladi, bu atama turli darajadagi ta'lim muammolarini tahlil qilish uchun ishlatiladi: davlat, mintaqaviy, tashkiliy, guruh, shaxsiy. Tadqiqotchilar ijtimoiy guruhlar va shaxslarning xatti-harakatlarini strategik yondashuv nuqtai nazaridan o'rganishga bo'lgan qiziqishi oshishi, bir tomondan, sotsiologik nazariyaning rivojlanishi bilan bog'liq, ya'ni ilgari harbiy-siyosiy sohani, tashkiliy boshqaruv sohasi va biznes jarayonlarini tahlil qilish uchun ishlatilgan strategiya toifasini qo'llashi kengaytirildi. Boshqa tomondan, strategik yondashuv ijtimoiy omillar, shaxslar hayotining zamonaviy ijtimoiy sharoitlarining xususiyatlari bilan izohlanadi. Shunday qilib, ta'lim strategiyalarini o'rganishning dolzarbligi, bir qator zamonaviy tendensiyalar tufayli ta'lim sohasi o'zi ijtimoiy guruhlarning strategik xulq-atvori sohasi ekanligi bilan izohlanadi [11].

Ta'lim strategiyasi – bu ijtimoiy-ma'rifiy vaziyatni tahlil qilish, ta'lim maqsadlari, ta'lim mazmunini tanlash va qurish tamoyillari, o'quvchiga o'quv jarayonining ishtirokchisi sifatida qarash, shuningdek tizimning ushbu tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'z ichiga olgan tizim (D.G.Levites).

Xulosa qilib aytganda, o'qitish va o'qish strategiyasi tushunchalari va ularning mazmun-mohiyatini aniqlash mazkur tushunchalarning farqli xususiyatlari mavjudligini tasdiqlaydi. O'qish kompetensiyasi va o'qishni tushunish til o'rganishdagi asosiy mezonlardan hisoblanadi. Ingliz tili o'rganuvchilari uchun berilgan matnlar kontekstida o'qish strategiyalarining o'rnini tushunish uchun o'qish haqidagi ba'zi umumiy fikrlarni bilish zarurligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Westhoff G. Didaktik. des Leseverstehens. Strategien des voraussagenden Lesens mit Ubungsprogrammen. – Muenchen: Hueber, 1987. – 198 p.

Westhoff G. Fertigkeit Lesen. – Goethe-Institut, Muenchen, 1997. – 176 p.

Бахтин М.М. К методологии гуманитарных наук. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979. – С. 246-247.

Блауберг И.В. Системный подход: предпосылки, проблемы, трудности. – М.: Знание, 1969. – 48 с.

Брудный А.А. Психологическая герменевтика. – М.: Лабиринт, 1998. – 201 с.

Зимняя И.А. Психология обучения иностранному языку в школе // Библиотека учителя иностр. яз. – М.: Просвещение, 1991. – 222 с.

Зимняя И.А. Психология обучения неродному языку. – М.: Русский язык, 1989. – 219 с.

Ковалева Г. С., Нурминская Н.В. Аналитический отчет «Изучение скорости чтения 15-летних учащихся». – М.: Центр оценки качества образования ИОСО РАО, 2001. – 28 с.

Макашова Г.А. Структурный метод обучения чтению литературы по специальности на иностранном языке (обучение аспирантов чтению технической литературы на английском языке). ЛГПИ им. А.И.Герцена. – Л., 1969.

Мильруд Р.П. Компетентность в изучении языка // ИЯШ, 2004. – №7. – С.30-36.

Образовательные стратегии: подходы к определению понятия и традиции исследования. Электронный ресурс: Образовательные стратегии: подходы к определению понятия и традиции исследования — Студопедия (studopedia.ru). Дата обращения: 18.10.2023.

Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация / пер. с англ. – М., «Когито-